

DOIRA IJROCHILIGIDAGI “USTOZ-SHOGIRD” AN’ANALARINING O‘RNI

Orifov Bekzod Baxrom o‘g‘li

*Jizzax ixtisoslashtirilgan san’at maktabi
oliy toifaliy o‘qituvchisi.*

O‘zbek musiqa san’ati xazinasida juda katta musiqiy merosga ega ekanligi hech kimga sir emas. U o‘zida xalq ijodi (ya’ni rosmi folklor) hamda kuy tuzilishi jihatdan rivojlangan ashula va cholg‘u asarlarni o‘z ichiga olgan og‘zaki an’anadagi professional musiqani birlashtiradi. Cholg‘u asboblari hamda musiqa amaliyoti, musiqa ijrochiligi bilan bog‘liq bo‘lgan cholg‘u musiqa janrlari ham g‘oyat rang-barangligi va boyligi bilan xarakterlanadi.

Musiqa shunday bir buloqki, undan qancha foydalansangiz, undagi asarlarni o‘rgangan sari, beto‘xtov, viqor bilan biz bilmagan namunalari chiqib kelaveradi. Ammo, professional musiqachilar bizning asrimizgacha Yevropa amaliyotidagi nota yozuvini qo‘llashmagan. O‘zbek kasbiy musiqasining barcha murakkab namunalari hamda ijrochilik belgilari “ustoz–shogird” an’anasi asosida saqlanib va sayqallanib keldi.

O‘zbek professional ijrochilik madaniyati rivojlanganligi sababli hofiz va sozandalar oldiga qadim vaqtlardan alohida talablar qo‘yilgan. Havaskor sozanda va xonandalar mashhur ustozlardan uzoq yillar ta’lim olganlaridan keyingina professional ijrochi bo‘lib yetishganlar. Ta’lim jarayoni quyidagicha bo‘lar edi: o‘z qobiliyati bilan ustoz e’tiborini qozongan o‘smir unga shogirdlikka tushib, juda ko‘p miqdordagi musiqa asarlarini (imkon boricha batafsil) yod olgan holda bir necha (odatda yetti-o‘n) yil davomida ijrochilik san’atini o‘rganar edi. So‘ngra ustoz oldida imtihondan o‘tgach, u bilan teng huquqli professional ijrochi deb hisoblanar edi. Bu professional ijrochilardan ayrimlari (masalan, surnaychi, karnaychi, doirachi, nog‘orachi, dorbozlar, qo‘g‘irchog‘bozlar, raqqoslar bilan birgalikda) maxsus uyushmalarga birlashar edi. Bunday uyushmalarga ko‘proq tajribali ustozlar rahbarlik qilar edi. Huddi shu kabi, doira ijrochiligi ham ustoz-shogird an’anasi tarzida rivojlanib kelgan va taraqqiy etib kelmoqda.

Doira cholg‘usiga keladigan bo‘lsak, o‘zbek xalq cholg‘ulari orasida bu cholg‘u - qadim davrlardan xalqimiz orasida keng ommalashib kelgandir. Xalq orasida tarqalgan turli xil afsonalar ham buni ta’kidlaydi. Respublikamizda turli vohalardagi arxeologik qazilmalardan topilgan tarixiy obidalaridagi doira va doirasimon cholg‘ularda ijro etilyotganlini ko‘rsatuvchi tasvirlar uning qadim zamonlardan amaliyotda keng qo‘llanilganligidan guvohlik beradi.

XX asrning 20-30-yillaridan boshlab, o‘zbek doirachilik maktabi yangi davr rivojiga yuz tutganligini namoyon etgan. Unga zamonasining mohir san’atkori Usta Olim Komilov tomonidan asos solindi. O‘zbek usullarini doira cholg‘usida ijro etishni rivojlantirish bilan birga, jo‘rnavor cholg‘udan yakkanavor soz darajasigacha ko‘tara oldi.

Hozirgi zamon o‘zbek musiqa madaniyati o‘ziga xos murakkab jarayon sifatida gavdalanadi. Uning serqatlam bisotida o‘zbek milliy zarbli cholg‘ulari uchun yaratilgan asarlar alohida o‘rin tutadi. Qadim-qadimlardan yetib kelgan bu san‘at, XX asrda tubdan o‘zgara boshlaganligi, yangi izlanishlar bilan boyitilib, zamonaviy ijrochilik yo‘nalishlarning vujudga kelganligi ko‘pchilikka ma‘lum. Zamonaviy jahon musiqa san‘atida turli yo‘nalishlar, har xil milliy ohanglar, ko‘plab kompozitorlik maktablari ijodining o‘zaro sintezlashuv jarayonlari ko‘zga tashlanadi. Ushbu asarlarda o‘zbek milliy zarbli cholg‘ulari – doira, nog‘ora, safoil va boshqalar bilan bir qatorda yevropa urma zarbli cholg‘ulari – litavra, tarelka, uchburchak, kichik baraban, katta baraban, ksilofon, marimba, vibrafon, qo‘ng‘iroqcha kabi cholg‘ular partituraga asta-sekin kiritila boshlandi. Ya‘ni, urma zarbli cholg‘ular ansambli tarkibida o‘zbek milliy va yevropa cholg‘ulari birgalikda ishlatilishi ko‘zda tutilgan, albatta. Ularning birlashishi mantiqiy mohiyati shundan iboratki, o‘zbek urma va zarbli cholg‘ulari kuylarga milliy tus baxshida etsa, yevropa cholg‘ulari erkin fakturaviy va gomofon-garmonik tafakkurni shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda doira ijrochiligi alohida ahamiyat kasb etadi. Ijrochilik maktablarining bugungi kundagi faoliyati taqsiinga sazovordir. Ana shunday ijodiy jamoalardan biri – “Boburxon” doirachilar jamoasidir.

1992-yilga kelib, Jizzax vohasida dastlab doira ijrochiligiga e‘tibor “Jizzax Davlat San‘at Bilim Yurti” (hozirgi Jizzax ixtisoslashtirilgan san‘at maktabi) qoshida “Maqom” bo‘limi ochilishi bilan boshlandi. Ustozlardan doirachi Bobur Bahodirov, g‘ijjakchi Sodiq Ochilov, Mahkam Mirtazoqulovlar dars berishardi.

1994-yil “Boburxon” doirachilar to‘garagi rahbari, “O‘zbekiston Respublikasi o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi a‘lochisi”, “O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi laureati”, “Madaniyat va san‘at fidokori” - Atxam Ochilov o‘qishga kiradi. Doiradan ilk saboqlarni dastlab, Bobur Bahodirovdan keyinchalik, taniqli san‘atkorlar Dilmurod Islomov, Xasan Azimov, Abbos Qosimov va Ma‘ruf Azimovlardan sozandalik sirlarini o‘rganadi. Bu paytlarda Jizzax miqyosida hech qanday ansambl, doirachilik ansambli bo‘lmagan. 1997-yilda B. Bahodirov tashabbusi bilan doirachilar ansambli tashkil etiladi. O‘zbek xalq usullari, maqom usullari, ustozlar ijod etgan doira usullaridan foydalanib turli tantanalarda chiqishlar qila boshlaydi.

1996-2001-yillarda viloyatida ko‘plab inshootlar, mahalla guzarlari, “Yoshlar markazi”, istirohat bog‘lari va boshqalar ko‘plab binolar barpo etildi. Shuningdek, Jizzax tumanida ochilgan “Hamid Olimjon” mahalla guzari ochilishida 6 nafar doirachi talaba qatnashadi. Shu kundan boshlab, “Jizzax Davlat San‘at Bilim Yurti” qoshidagi “Doirachilar ansambli” viloyat miqyosida tashkil etiladigan madaniy-ma‘rifiy tadbirlarda, konsert - dasturlarida muntazam qatnashib kelishadi. Aynan mana shu yillarda, “Yoshlar Markazi” ning tantanali ochilishida, Atxam Ochilov rahbarligidagi doirachilar ansambli (Jizzax viloyat hokimi) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning e‘tiboriga tushadi. Yurboshimiz Shavkat Mirziyoyev doirachilar ansambli rahbari A. Ochilovni oldiga chorlab, bu doirachilar ansambl chiroyli ansambl bo‘libdi, bu ansamblni rivojlantirish kerak deb, o‘sha paytda Jizzax viloyat Kasaba uyushmalari federatsiyasi raisi,

hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmalari federatsiyasi raisi Rafiqov Quadratilla Mirsoatovichga shu ansamblni rivojlantirish taklifini beradi.

1998-yil A. Ochilov o‘qishni tamomlab, “Jizzax Davlat San’at Bilim Yurti” da doira sinfi o‘qituvchisi va ansambl rahbari lavozimiga ishga qabul qilinadi. To‘garak tashkil topishi ham aynan shu davrdan boshlandi. Jizzax viloyatida shu davrgacha Respublika miqyosida mustaqillik bayrami o‘tkazilmagan edi. Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan birinchi maratoba “Sangzorko‘l” tantanalar majmuasida mustaqillik bayrami nishonlandi. Bayram tantanalariga Quadratilla Rafiqov mas’ul edi. Bayram dasturida ko‘plab ijodiy jamoalar bor bo‘lib, shu jamoalar ichida A. Ochilov rahbarligidagi 30 nafar doira ijrochilaridan iborat ansambl ham qatnashdi. Bayram dasturlarida o‘zbek xalq usullari Jizzaxga xos (“beshqarsoq-gul o‘yin”, “cho‘loqcha” (Forish tumaniga xos)) hamda Usta Olim Komilov, To‘ychi Inog‘omov, G‘ofur Azimov va boshqa ustozlar usullaridan foydalanib ansambl chiqish qildi. Keyinchalik Atxam Ochilov shu kabi usullardan foydalanib o‘zining “Yetti doira sadosi” badiiy kompozitsiyasini yaratgan.

Rafiqov Quadratilla Mirsoatovich o‘sha yillarda madaniyat va san’at sohasiga katta e’tibor qaratganligi bois, ko‘plab san’atkor, xonanda, sozanda, badiiy jamoalarga sahna madaniyati, sahna odobi, hamda tomoshabin bilan qanday muloqotda bo‘lish kerakligini ko‘p marotaba ta’kidlab o‘tardi. Shu bilan birga Quadratilla Rafiqov doirchilar ansambiliga nom qo‘yish taklifini bergan paytda, A. Ochilov: “Meni qo‘limga doirani tutib, to‘rt yil o‘rgatgan ustozimning ismini qo‘yib, viloyatga, Respublikaga, kerak bo‘lsa butun dunyoga tanitishni istayman” deya, doirachilar jamoasiga “Boburxon” nomini berdi.

Suhbat jarayonida A. Ochilov: “Har bir bayram tadbirlari yakunlangandan so‘ng ustozim Quadratilla Rafiqov o‘z oldilariga chorlab, oldingi bayram dasturlaridagi chiqishdan bu safargisi o‘zgacha bo‘ldi deb, har bir ijrodan so‘ng meni ruhlantirib, rag‘batlanirib turar edilar. Menga doira sirlarini o‘rgatgan ustozlarim qatorida, ilk bor sahnaga olib chiqib, sahna madaniyatini o‘rgatgan, ko‘p yillar mobaynida o‘z maslahatlarini, o‘gitlarini ayamay, menga dalda bo‘lgan Quadratilla Rafiqovni ham ustozim deb bilaman va ularni bergan saboqlarini hech qachon yodimdan chiqarmayman”, – deya alohida ta’kidladi.

2011-yilda Jizzax doirachilik san’atida katta burilish sodir bo‘ldi. Har ikki yilda o‘tkaziladigan “Zarb” Respublika festivalida (16 yoshdan 40 yoshgacha) 9 nafar doirachi bo‘lib, yakka va guruhli chiqish qilib, faxrli 2-o‘rinni olishdi. Dilmurod Islomov ularga qarab: “Shu paytgacha Jizzaxda doirachilar bor deb o‘ylamas edik” deya hayratlangan ekan.

Ustoz-shogirt aloqalarining mustahkamligi, butun bir oiladik birlashishga sabab nima deb o‘ylaysiz deya savol berganimda, bevosita, D. Islomovning gaplarini aytdi: “Akalarim, ukalarim shuni bilib olinglar - O‘zbekiston bo‘ladimi, O‘rta Osiyo bo‘ladimi biz doirachilar bir oilamiz, bir qozondan ovqat yeymiz”!

2015-yildan boshlab, an’ana tarzida bu ansambl har ikki yilda bir marotaba konsert beradi. Mumtoz usullar, xalq usullari, ijod etilgan usullar va xalq kuylari - “Daryo toshqin”, “Olmani otdim otganga”, “Qarg‘alar”, “Duchava” va boshqa kuylardan foydalanib, turli xil popuri, imprvizatsiya nomerlari bilan chiqishlar qilishadi. Quvonarlisi shundaki, konsertlarda doirachi ustozlar ham mehmon, ham ishtirokchi bo‘lib qatnashishadi.

Konsertdan so‘ng D. Islomov, H. Azimov, A. Qosimov, va boshqa ustozlar bilan birgalikda muhokamalar bo‘lib o‘tadi.

Hozirgi kunda Respublika miqyosida har oy ijodiy uchrashuv tashkil etilib, ustozlarning ijro yo‘llarini o‘rganib qaytishadi. Bunga misol qilib, Jizzaxda 1-marotaba “Tog‘ go‘zali” – doira raqsi bilan chiqish qilishganda ham uni xato-kamchiliklari to‘g‘risida ham suhbat qilishganligini keltirish mumkin. Bu chiqish nafaqat doira balki raqs san’atidagi o‘zgarishlar, rivojlanishlarga misoldir.

Doirachilar jamoasining turli konsert-dasturlari, to‘y marosimlar, mahorat darslari, viloyatlarda uyushtiriladigan ijodiy safarlarga taklif qilinib, doira cholg‘usining zarblaridan bahramand bo‘lishadi.

Ustozlarni hurmat qilish, ardoqlash, va ularning ishlarini davom ettirish ham tahsinga sazovordir. Bunga yana misol qilib Atxam Ochilovning shogirdi Sherzod Ergashevning ustozini ulug‘lab “Atxamsher” doirachilik to‘garagi (hozirgi kunda 20 dan ortiq ijrochilardan iborat) tashkil etganligini misol sifatida keltirishimiz mumkin. Yana xursand bo‘ladigan jihati shundan iboratki, Jizzax viloyati, Jizzax shahridagi musiqa maktablari, ijodiy uylar, madaniyat markazlarida faoliyat olib borayotgan 100 dan ortiq doirachi mutaxassislar “Boburxon” doirachilar ansamblidan yetishib chiqqan ijrochilar hisoblanadi.

O‘zbek san’atini targ‘ib qilish maqsadida Yevropa mamlakatlari, Gretsiyaning Afina, Nafpulyon, Belgiyaning Burussel, Buruggel shaharlari, Niderlandiya va boshqa davlatlarda ijodiy safarlarda bo‘lib, tinglovchilar olqishiga sazovor bo‘lib kelmoqda. Ushbu jamoa Yevropa mamlakatlarining diplom va tashakkurnomalari, xususan, Rossiyada o‘tkazilgan “Talant shou” xalqaro tanlovida 1-darajali diplom, Fransiya o‘tkazilgan “THE OPEN WORLD IN PARIS” nomli xalqaro tanlovda 2-darajali diplomlari bilan taqdirlangan.

“Boburxon” doirachilar ijodiy jamoasi yurtimizda va xorijiy mamlakatlarda tashkil etilib kelinayotgan konsert-dasturlari, turli festival, ko‘rik-tanlovlarda qatnashib, mutaxassislarning yuqori e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda. Shuningdek, mazkur jamoa nafaqat Jizzax viloyatining madaniy hayotida balki, mamlakatimiz doira ijrochilik san’ati ravnaqiga beqiyos hissa qo‘shmoqda. 2022-yil may oyida o‘tkazilgan “Zarb” Respublika ko‘rik tanlovida faxrli 2-o‘rinni egallashgani ham quvanarlidir.

Mehnatlarning samarasi o‘laroq Atxam Ochilov an’anaviy ijroda doira mutaxassisligi bo‘yicha bolalar va ixtisoslashtirilgan san’at maktablari uchun o‘quv qo‘llanma, dasturlar hamda ko‘plab uslubiy qo‘llanmalar yaratdi. Shu bilan birga “O‘zbekiston Respublikasi o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi a’lochisi”, “O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi laureati”, “Madaniyat va san’at fidokori” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

“Boburxon” doirachilar ansambli o‘sib kelayotgan yosh avlod vakillarini, doira cholg‘usiga qiziqtirish, “ustoz-shogird” an’anasini uzviyligini davom ettirish, o‘zbek san’atini xorijiy davlatlarda targ‘ib qilish kabi ma’suliyatli hamda sharaflil vazifani to‘la-to‘kis ado etib kelmoqda. Ularning kelgusi ijodiy faoliyatlarida ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz.